

MUSIQANING INSON MA'NAVİY KAMOLOTIDA TUTGAN O'RNI HAQIDA QOMUSIY OLIMLAR QARASHLARI

<https://doi.org/10.70728/orien.v07.i02.032>

M.Rafiqov
Qo'qon davlat universiteti

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada Sharq va islom uyg'onish davri qomusiy olimlari - Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Imom G'azzoliy, Alisher Navoiy va boshqa mutafakkirlarning musiqaning inson ma'naviy kamolotidagi o'rni haqidagi qarashlari chuqur tahlil qilinadi. Allomalarning asarlaridan keltirilgan iqtiboslar asosida musiqaning ruhiy, axloqiy, estetik va tarbiyaviy ahamiyati nazariy jihatdan yoritiladi.

Kalit so'zlar: musiqa, ma'naviy kamolot, qomusiy olimlar, Forobiy, Ibn Sino, G'azzoliy, Navoiy, ruhiyat, tarbiya

VIEWS OF ENCYCLOPEDIA SCIENTISTS ON THE ROLE OF MUSIC IN HUMAN SPIRITUAL PERFORMANCE

M.Rafikov
Kokand State University

Abstract: This scientific article deeply analyzes the views of the Eastern and Islamic Renaissance encyclopedists - Abu Nasr Al-Farabi, Abu Ali Ibn Sina, Imam Ghazali, Alisher Navoi and other thinkers on the role of music in human spiritual perfection. Based on quotes from the works of scholars, the spiritual, moral, aesthetic and educational significance of music is theoretically illuminated.

Keywords: music, spiritual perfection, encyclopedists, Al-Farabi, Ibn Sina, Ghazali, Navoi, psychology, education

Insoniyat tarixida musiqa doimo ma'naviy hayotning ajralmas qismi bo'lib kelgan. U inson ruhiy olamiga chuqur ta'sir etib, ichki kechinmalar, hissiyotlar va axloqiy fazilatlarining shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, Sharq mutafakkirlari musiqani faqatgina san'at turi sifatida emas, balki insonni komillikka yetaklovchi ma'naviy vosita sifatida baholaganlar.

Qomusiy olimlar o'z asarlarida musiqaning inson ruhiyati, axloqi va jamiyat hayotiga ta'sirini ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berganlar. Ularning qarashlari bugungi

kunda ham musiqa pedagogikasi, san'atshunoslik va ma'naviy-ma'rifiy ishlar uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Ma'naviy kamolot - bu insonning axloqiy yetukligi, ruhiy pokligi, estetik didi va ichki uyg'unligining yuksalishidir. Musiqa ana shu jarayonga bevosita ta'sir ko'rsatadigan kuchli omillardan biridir. Qadimgi mutafakkirlar musiqani "ruh uchun oziq" deb ataganlar. Musiqa inson qalbini yumshatadi, yomon fikrlardan poklaydi va ezgulikka yo'naltiradi. Shu bois qomusiy olimlar musiqani tarbiya vositasi sifatida alohida e'tirof etganlar.

Abu Nasr Forobiyning musiqaga oid nazariy qarashlari o'ziga hos. Forobiy sharq musiqashunosligining asoschisi hisoblanadi. Uning "Kitob al-musiqa al-kabir" asari musiqaga bag'ishlangan eng mukammal ilmiy manbalardan biridir. Forobiy shunday deydi: "Musiqa inson ruhiga ta'sir etuvchi eng nozik va kuchli san'at turlaridan biridir." Bu fikrdan ko'rinadiki, Forobiy musiqaning ta'sir doirasini faqat estetik zavq bilan cheklamaydi. U musiqani inson ruhiy holatini boshqaruvchi, kayfiyat va xulq-atvorni shakllantiruvchi omil sifatida baholaydi.

Forobiy musiqa ohanglarini inson fe'l-atvoriga ta'siriga qarab guruhlariga ajratadi: quvonch uyg'otuvchi ohanglar, sokinlik va tafakkurga chorlovchi ohanglar, qayg'u va mulohazaga undovchi ohanglar. U musiqaga shunday ta'rif beradi: "Har bir ohang inson tabiatidagi muayyan holatni uyg'otadi." Bu qarash musiqaning ma'naviy kamolotdagi o'rnini ilmiy asosda tushuntirib beradi.

Yana bir sharq mutafakkiri Abu Ali ibn Sinoning musiqa va ruhiyat uyg'unligi haqida qimmatli ma'lumotlar keltiradi. Abu Ali ibn Sino musiqani nafaqat san'at, balki tibbiy va psixologik vosita sifatida ham o'rganadi. U "Donishnoma" va "Tib qonunlari" asarlarida musiqaning inson ruhiyatiga ta'siri haqida qimmatli fikrlar bildiradi. Ibn Sino fikricha: "Ohanglar ruhni quvontiradi, yurakni yengillashtiradi va insonni ichki muvozanatga olib keladi." Bu iqtibosdan ko'rinib turibdiki, Ibn Sino musiqani ruhiy salomatlik bilan chambarchas bog'laydi. U musiqani tushkunlik, asabiylik va ruhiy charchoqni kamaytiruvchi vosita sifatida ko'rsatadi.

Ibn Sino ilmiy qarashlariga ko'ra, musiqaning ma'naviy kamolotdagi o'rnini shundaki, u insonni: sabr-toqatli qiladi, ichki osoyishtalikka yetaklaydi, ruhiy poklanishga xizmat qiladi.

Qomusiy olimlardan biri Imom Abu Homid G'azzoliy musiqani axloqiy mezonlar asosida baholaydi. Uning "Ihyo ulum ad-din" asarida musiqa va ma'naviyat masalasi alohida o'rin tutadi. G'azzoliy shunday deydi: "Musiqa qalbdan bor narsani yuzaga chiqaradi." Bu fikr musiqaning inson ichki dunyosini ochib beruvchi kuchga egaligini ko'rsatadi. Agar qalb pok bo'lsa, musiqa uni yanada yuksaltiradi; aks holda, salbiy hislarni ham kuchaytirishi mumkin.

Shu sababli G'azzoliy musiqaning ma'naviy kamolotga xizmat qilishi uchun uning mazmuni va niyatiga alohida e'tibor berish zarurligini ta'kidlaydi.

Sharq ilm dunyosi yetakchilaridan biri Alisher Navoiy musiqa va estetik tarbiya haqidagi qimmatli ma'lumotlar keltiriradi. Alisher Navoiy musiqani she'riyat va badiiy tafakkur bilan uzviy bog'liq holda tasvirlaydi. Navoiy yozadi: "Xush ohang ko'ngilni tiriltirur." Bu jumla musiqaning inson ruhini uyg'otuvchi, hayotga muhabbatni oshiruvchi kuchini ifodalaydi. Navoiy musiqani insonni go'zallikka oshno qiluvchi, ma'naviy olamini boyituvchi san'at sifatida ulug'laydi.

Qomusiy olimlar musiqani yosh avlod tarbiyasida muhim vosita deb bilganlar. Musiqa orqali: estetik did, axloqiy fazilatlar, ruhiy barqarorlik shakllanadi. Forobiy va Ibn Sino musiqaning tarbiyaviy kuchini ilmiy asoslagan bo'lsa, Navoiy uni badiiy misollar orqali yoritgan.

Bugungi kunda musiqa terapiyasi, musiqa pedagogikasi va san'at psixologiyasi aynan qomusiy olimlar ilgari surgan g'oyalarga tayanadi. Bu esa ularning qarashlari o'z dolzarbligini yo'qotmaganini ko'rsatadi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, qomusiy olimlarning qarashlari musiqaning inson ma'naviy kamolotidagi o'rni beqiyos ekanini yaqqol namoyon etadi. Musiqa inson ruhini poklaydi, axloqiy yetuklikka yetaklaydi va estetik tafakkurni rivojlantiradi. Shu bois musiqa ma'naviy tarbiyaning muhim vositasi sifatida qadrlanishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Forobiy A.N. Kitob al-musiqa al-kabir.
2. Ibn Sino A.A. Donishnoma.
3. G'azzoliy A.H. Ihyo ulum ad-din.
4. Navoiy A. Mahbub ul-qulub.
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch.